

6-MAY

2023



Toshkent tibbiyot  
akademiyasi



O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirligi

# ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIKADA FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRASIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed



Toshkent tibbiyot akademiyasi

[www.tma.uz](http://www.tma.uz)

O'zbekiston  
Respublikasi

Sog'liqni saqlash vazirligi

[www.ssv.uz](http://www.ssv.uz)

## **MAHORAT DARSINING SAMARALI KASBIY TAYYORGARLIK SHAKLI SIFATIDA AHAMIYATI**

**Sh. A. Kodirova, O. O. Jabbarov, Sh. I. Xodjanova**

TTA, 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasi

### **ANNOTATSIYA**

Oliy tibbiy ta'limni modernizatsiyalash sharoitida mutaxassislar tayyorlashning kompetentlikka asoslangan modeli-tibbiy ta'limni innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. TTA 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasi professor-o'qituvchilari va Hindistonning Gudjarat shtati Barodo shahrida joylashgan "Yurak ritmi instituti" yetakchi xodimlari: Anand Axudja va Nirav Bxalani tomonidan "Arterial gipertenziyani tashxislash va zamonaviy davolash" mavzusida o'tkazilgan mahorat darsi ta'limda hozirgi zamon muammolari va texnologiyalari haqida umumiy ma'lumot, texnologiyalardan foydalanishning turli jihatlari va metodlari, mualliflik usullari, texnologiyalarni amaliyotda qo'llash bo'yicha yangicha metodik yondashuv bo'la oldi.

**Kalit so'zlar:** mahorat darsi, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik texnologiya.

### **АННОТАЦИЯ**

В условиях модернизации высшего медицинского образования компетентная модель подготовки специалистов является основным направлением инновационного развития медицинского образования. Мастер-класс на тему "диагностика и современное лечение артериальной гипертензии", проведенный профессорами кафедры факультетской и госпитальной терапии, нефрологии и гемодиализа № 2 ТТА и ведущими сотрудниками Института сердечного ритма в Бародо, штат Гуджарат, Индия: Анандом Ахуджа и Ниравом Бхалани, посвящен современным проблемам и технологиям в образовании. Общие сведения, различные аспекты и методы использования технологий, авторские методы, смогли стать новым методическим подходом к применению технологий на практике.

**Ключевые слова:** мастер-класс, профессиональная подготовка, педагогическая технология.

### **ABSTRACT**

In the conditions of modernization of higher medical education, the competent model of training specialists is the main

direction of innovative development of medical education. A master class on the topic "diagnosis and modern treatment of arterial hypertension", conducted by professors of the Department of Faculty and Hospital Therapy, Nephrology and Hemodialysis No. 2 TTA and leading employees of the Heart Rhythm Institute in Baroda, Gujarat, India: Anand Ahuja and Nirav Bhalani, is dedicated to modern problems and technologies in education. General information, various aspects and methods of using technologies, author's methods, could become a new methodological approach to the application of technologies in practice.

**Keywords:** master class, professional training, pedagogical technology.

**Kirish.** Keng ko‘lamli islohotlarning muhim bo‘g‘ini – innovatsiyalar ham bugun har bir sohada bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham o‘zining afzalliklarini namoyish qilmoqda. Innovatsiya amaliyot nazariyaning muhim bir qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017 yil 20 apreldagi PQ - 2909-son** “**Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**” gi Qarorida belgilangan vazifalarning 1- band bo‘yicha belgilangan vazifalarda “**har bir oliy ta’lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish**” [1] kabilar ko‘rsatilgan. Bu borada respublikamizda olib borilayotgan ilmiy-amaliy izlanishlar bilan bir qatorda xorij mamlakatlarining zamonaviy, ilg‘or texnologiyalarni o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun esa chet ellik yetuk mutaxassis professor-o‘qituvchilar tomonidan ma’ruzalar, mahorat darslarni tashkil etish amaliy ahamiyatga ega.

**Dolzarbliyi:** Respublikamizda Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida ilg‘or texnologiyalarni keng rivojlantirish bilan uzlusiz ta’lim tuzilmasi va mazmunida tub o‘zgarishlar ko‘zda tutilgan. Oliy tibbiy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida mutaxassislar tayyorlashning kompetentlikka asoslangan modeli-tibbiy ta’limni innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Bu vazifa fan, texnika va ilg‘or texnologiyalardan foydalanish asosida oliy ta’limda o‘qitish va shaxsiy rivojlanishning maqsadlari, mazmuni, usullari, vositalarini ilmiy qo‘llab-quvvatlashni talab etadi.

**Mahorat (master klass) darsi-o‘qitish** va tajriba almashishning interfaol shakli bo‘lib, u trening va anjuman formatini birlashtiradi.

**Master-klass** - (ingliz tilidan: master - har qanday sohada eng zo'r + sinf - dars, dars) - kasbiy darajani oshirish va almashish maqsadida turli usullar va texnologiyalar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni amaliyotga tatabiq etish uchun o'quv seminarini o'tkazishning zamonaviy shakli. ilg'or tajribalar bilan o'zaro almashinuv, mahorat darsi ishtirokchilari dunyoqarashlarini kengaytirish va bilimlarini eng so'nggi yutuqlar bilan tanishtirish orqali chuqurlashtirish hisoblanadi.

Birinchi bor qadimgi Yunonistondagi sofistlarning o'qitish usullarini master klassning dastlabki shakli deb hisoyulash mumkin. Sofistlarning o'z mahoratini talabalarga omma oldida namoyish etishi va uning o'qituvchi tomonidan talabalarining o'zaro chiqishlarini batafsil o'rganish bilan birlashtirilgandi [2]. 1869 yilda Veymarda master-klass o'tkazgan Frants Liszt [3] esa zamonaviy shaklda mahorat darsining asoschisi sifatida tan olinadi.

Klassik **mahorat (master klass)** darsi o'z ichiga quyidagilarni oladi [4,6]:

1. Mutaxassisning o'z mahoratini yoki muammoni tushunganini amaliy shaklda namoyish etishi. Magistr maslahatchi sifatida ishlaydi, o'quv ishlarini tashkil etishga, ijodiy faoliyatni yangi, yuqori darajada tushunishga yordam beradi. Trening yoki seminardan farqli o'laroq, mahorat darsi odatda o'zining kasbiy malakasini yanada boyitish uchun kerak bo'lganlar uchun o'tkaziladi
2. Mutaxassis nazorati ostida tinglovchini malakani egallash bo'yicha faol ishlarga jalb etish.
3. Ustoz va uning tinglovchilari o'rtasidagi muloqot jarayonini idrok etuvchi keng auditoriyaning mavjudligi, bu jarayonga savollar berish va tushuntirishlarni talab qilish orqali aralashish mumkin.

Pedagogik mahorat darslarining esa uchta asosiy turi mavjud [5,7,9]:

- **Pedagogik tajribani taqdim etish:** taqdim etilayotgan tarbiya yoki ta'lif texnologiyasining asosiy g'oyalari qisqacha tavsiflanadi, ishning aniq namunasi ko'rsatiladi (dars yoki sinfdan tashqari mashg'ulot shaklida), o'qituvchi faoliyatidagi muammolar va istiqbollar tinglovchilar bilan muhokama qilinadi.
- **Taqlid o'yini:** o'qituvchi o'quvchilar o'mini egallagan, bir vaqtning o'zida ikkita rol o'ynaydigan talabalar bilan mashg'ulot o'tkazadi. **Modellashtirish:** ishtirokchi-o'qituvchilar mutaxassis tomonidan taklif qilingan dars texnologiyasi jarayonida darsning o'z modelini loyihalash bo'yicha mustaqil ishlarni bajaradilar. Mahorat darsini o'tkazuvchi mutaxassis maslahatchi sifatida ishlaydi; u faqat tinglovchilarning mustaqil faoliyatini tashkil qiladi, keyin esa dars davomida yaratilgan mualliflik modellarini muhokama qilishda ishtirok etadi.

**Mahorat darsi**-o'qitish va tajriba almashishning interfaol shakli bo'lib, u trening va anjuman formatini birlashtiradi.

**Maqsad:** kasbiy sohadagi yangiliklar uslubini yaratish va o'zlashtirishni ta'minlash, mahorat darsi o'qituvchisining metodik yondashuvlari va mahorat darsi dasturida belgilangan muammoni yechish usullarini birgalikda ishlab chiqish.

Mahorat darsining **vazifalari**- pedagogik faoliyatning harakatlari, usullari va shakllari ketma-ketligini bevosita va sharhlab ko'rsatish orqali usta o'qituvchi tajribasini o'tkazish, o'rganish.

Mahorat darslari **mavzulariga** quyidagilar kiradi: hozirgi zamon muammolari va texnologiyalari haqida umumiy ma'lumot, texnologiyalardan foydalanishning turli jihatlari va metodlari, mualliflik usullari, texnologiyalarni amaliyotda qo'llash va boshqalar.

Mahorat darsi texnologiyasi **algoritmi**: ustoz o'qituvchi tomonidan pedagogik tajribani taqdim etish, o'quv mashg'ulotlari tizimini taqdim etish, imitatcion o'yin o'tkazish, modellashtirish, aks ettirish [4,8].

Mahorat darsi davomida ishtirokchilar mahorat darsi mavzusiga oid ishlanmalmanni o'rganishadi; olingen natijalarni muhokama qilishda ishtirok etishadi, savollar berishadi va maslahatlar olishadi.

Mahorat darsi texnologiyasida **asosiy narsa** - bu axborot almashish va o'rganishgina emas balki, o'zlashtirilib, amaldda qo'llanilayotgan usullar yoki texnologiyalarni uzatish hisoblanadi.

**Material va uslublar:** TTA 2-sod fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasi professor-o'qituvchilari va Hindistonning Gudjarat shtati Barodo shahrida joylashgan "Yurak ritmi instituti" yetakchi xodimlari: Anand Axudja va Nirav Bxalani tomonidan "**Arterial gipertenziyani tashxislash va zamonaviy davolash**" mavzusida o'tkazilgan mahorat darsi.

**Natijalar:** Hindistonlik olimlar o'z mahorat darslarida dastlab o'zlar faoliyat ko'rsatayotgan klinika haqida, u yerda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, davolashda qo'llanilayotgan tibbiyotning oxirgi yutuqlarning ahamiyati haqida gapirishdi. Jumladan ular faoliyat ko'rsatayotgan klinikada shu paytgacha 5000 ga yaqin koronar angiografiya va 2000 ta koronar angioplastika amaliyotlari o'tkazilgan. So'ngra "Arterial gipertenziyani tashxislash va zamonaviy davolash" mavzusi bo'yicha kasallikni o'z vaqtida tashxislash uchun xavfli omillarni o'z vaqtida to'g'ri baholash, klinik belgilarga e'tiborni kuchaytirish, tezkor diagnostik chora-tadbirlarini qo'llash, davolash usulini shunga monand tanlash muhim rol o'ynashini alohida ta'kidlashdi. Mahorat darslarida ishtirok etganlar esa mavzularni yoritishda, tahlil qilishda har ikkala olimga savollar orqali murojat qilishib, o'zlarining fikrlarini, ish tajribalarini havola etishdi.

**Xulosalar:** shunday qilib, samarali ishlash usullarini yetkazish mahorat darsini o'tkazayotgan ustoz uchun eng muhim vazifalardan biridir. Mavzuning dolzarbliji va ilmiy mazmuni va o'qitish metodlariga odatdag'i an'analardan tashqariga chiqadigan yangi g'oyaning mavjudligi hamda qodirligi esa kasbiy ta'limi takomillashtirib, amaliy ko'nikmalarni yanada boyitadi. Bunday ta'lim ikkala sub'ektning intellektual va kasbiy imkoniyatlarini kengaytirishdan qoniqishni va samaradoligini hosil qiladi.

## **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori Lex.uz
2. Гомперц Т. Греческие мыслители. Мн.: Харвест. 1999. Т. 1. С. 422—446.
- 3.Бобряшова О. В. Мастер класс и творческая мастерская как педагогические технологии обучения будущих дизайнеров. Вестник ОГУ № 11 (130) 2011. С. 169—175.
4. Русских Г. А. Мастер-класс - технология подготовки учителя к творческой профессиональной деятельности. Методист. 2002, № 1. С. 38.
- 5.Организatsiya и проведение мастер-классов.Методические рекомендатсию. Сост. А. В. Машуков. Челябинский институт переподготовки и повышения квалификации работников образования, 2007.
6. Кодирова, Ш. А., & Ходжанова, Ш. И. (2022). Важность симуляционного обучения в практических занятиях (Doctoral dissertation, Организация и перспективы симуляционного обучения в медицине).
7. Кодирова, Ш. А., & Ходжанова, Ш. И. (2022). Значение Игровой Технологии В Клинических Дисциплинах. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 13, 133-135.
8. Умарова, З. Ф., Кодирова, Ш. А., & Максудова, М. Х. (2022). Использование информационных технологий при чтении лекций в процессе обучения студентов по терапевтическим дисциплинам. Solution of social problems in management and economy, 1(6), 99-100.
9. Qodirova, S. A. (2022). Klinik ish o'yinlarining amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirishda ahamiyati.

**CONTENTS**

**MUNDARIJA**

90. Бахриддина, Г. М., & Эргашева, К. (2023). ОСОБЕННОСТЬ КОМПЬЮТЕРНЫХ ПРОГРАММ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В НЕЯЗЫКОВОМ ВУЗЕ. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 434-438.
91. Бердиева, Н. А. (2023). РАЗВИТИЕ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ОБУЧАЮЩИХСЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 439-443.
92. Хайдарова, Б. (2023). ШАХСГА ЙУНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМНИНГ МОХИЯТИ ВА УНИ ТИББИЁТ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 444-448.
93. Хайитов, Ж. Б., Бурибоев,, Э. М., & Ниязова, О. Н. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФАКТИЧЕСКОГО ПИТАНИЯ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ СПОРТСМЕНОВ. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 449-454.
94. Dexkanova, M. U., & Metinboyeva, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TARBIYAVIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 455-460.
95. Dexkanova, M. U., & Metinboyeva, S. (2023). KOMMUNIKATIV YONDOSHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TARBIYAVIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 461-466.
96. Хашимова, Х. Т. (2023). ДЕТСКАЯ КАРДИОЛОГИЯ. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 467-472
97. Жуманиёзова, М. Т. (2023). ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ИНТЕГРАТИВ КРЕАТИВЛИГИНИ АНИҚЛАШ МЕТОДИКАЛАРИ. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 473-477.
98. Мирхакимова, Р. Э. (2023). АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ КАЗАХСКОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 478-480.
99. Исканджанова, Ф. К. (2023). ИНФОРМАЦИОННАЯ И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ ВРАЧАПЕДАГОГА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 486-490.
100. Kodirova,, S. A., Jabbarov, O. O., & Xodjanova, S. I. (2023). MAHORAT DARSINING SAMARALI KASBIY TAYYORGARLIK SHAKLI SIFATIDA AHAMIYATI. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 491-495.